XALQ DEPUTATLARI KATTAQO’RG’ON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-85-125-7-106-K/23 Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi

Kattaqo‘rg‘on shahrining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Xalq deputatlari shahar Kengashining VI-71-208-7-106-K/22-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 147-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshiri to‘g‘risida”gi 2023-yil 28-martdagi PF-45-sonli va 2023-yil 17-noyabridagi PF-196-sonli Farmonlari ijrosi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 31-iyulidagi 02-876m-sonli xati, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023 yil 22 avgustdagi 1780m-sonli xati hamda shahar Iqtisodiyot va Moliya bo‘limining 2023-yil 07-dekabrdagi (01/01-38/720-sonli) xulosalari shuningdek shahar Iqtisodiyot va Moliya bo‘limining 2023-yil 26-dekabrdagi 01/01/-38-218-sonli xatlariga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari shahar Kengashining oltinchi chaqiriq, sakson beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Shahar Iqtisodiyot va Moliya bo‘limining 2023-yil 26-dekabrdagi 01/01/-38-218-sonli xatiga asosan xalq deputatlari shahar Kengashining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-71-208-7-106-K/22-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

- xalq deputatlari shahar Kengashining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-71-208-7-106-K/22-sonli qarori 1-ilovasiga qo‘yidagi tartibda 1-ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin:

- xalq deputatlari shahar Kengashining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-71-208-7-106-K/22-sonli qarorining 2-ilovasi qo‘yidagi tartibda 2-ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Shahar mahalliy byudjetining 2023-yilgi ijrosi jarayonida byudjet tasnifining bo‘lim, kichik bo‘lim, boblari hamda choraklar bo‘yicha xarajatlar miqdorining umumiy mutanosibligini saqlagan holda bir byudjet mablag‘lari oluvchisi uchun byudjet mablag‘larining kamaytirilishi boshqa byudjet mablag‘lari oluvchisi uchun byudjet mablag‘larining tegishli ravishda ko‘paytirilishi hamda rejadagi mablag‘larni bir xarajat turidan ikkinchi xarajat turiga o‘tkazilishi yo‘li bilan shahar mahalliy byudjetining xarajatlar qismiga 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi v.v.b (O.Kadirov) shahar mahalliy byudjetining 2023-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Eshpulatov) va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Toshpulatov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **G. Alimova**

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on
shahar Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-85-125-7-106-K/23-son qaroriga
1-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2023 yildagi asosiy ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Jami (ming so‘mda)
JAMI		**82 301 994.0**
1	Foyda solig‘i	4 340 400.0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	5 567 000.0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	31 096 800.0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	2 498 000.0
5	Aksiz solig‘i, jami	4 684 500.0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 991 750.0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	3 595 250.0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 158 600.0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2 278 694.0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	487 000.0
11	Yig‘imlar	367 000.0
12	Ijara	197 000.0
13	Aloqa xizmatlari ko‘rsatish uchun aksiz solig‘i	2 610 000.0
14	Alkogol mahsulotlari shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i	6 084 000.0
15	Tamaki mahsulotlaridan aksiz solig‘i	6 346 000.0

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on
shahar Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-85-125-7-106-K/23-son qaroriga
2-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahar 2023-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar	Miqdori (ming so‘mda)
Xarajatlar miqdori, Jami		**174 782 150.0**
1	Xalq ta’limi bo‘limi	7 818 188.0
2	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	9 756 211.0
3	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	71 144 652.0
4	Madaniyat bo‘limi	6 094 770.0
5	Turizmni rivojlantirish bo‘limi	3 966 355.0
6	Obodonlashtirish boshqarmasi	13 726 288.0
7	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	577 242.0
8	Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘limi	1 575 562.0
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 748 480.0
10	Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi	49 629 503.0
11	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Kattaqo‘rg‘on shahar Halq qabulxonasi	78 992.0
12	Xalq deputatlari shahar Kengashi	206 902.0
13	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Kattaqo‘rg‘on shahar bo‘limi	3 326 152.0
14	Oila va xotin qizlar bo‘limi	2 068 463.0
15	Mahalla va Nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	3 064 390.0